

DELIKT MAJBURIYATLAR-ZARAR YETKAZJISHDAN KELIB CHIQUADIGAN MAJBURIYATLAR

To'rayev Sayfidin

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Allayorova Muattar

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti Jinoyat huquqi va Fuqarolik protsessi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola doirasida fuqarolik huquqida asosiy institut hisoblanmish majburiyatlarning 2-turi shartnomasiz majburiyatlar turidagi delikt majburiyatlar ya'ni zarar yetkazish orqali vujudga keladigan majburiyatlar, uning asosiy tushunchalari, ularning shakllari, delikt majburiyatlarning yuzaga kelishi uchun talab etiladigan asoslar va shartlar haqida batafsil to'xtalib o'tamiz. Zarar keltirish orqali nima oqibatlar yuzuga kelishi mumkinligiga va uning javobgarligi masalalari ushbu maqola doirasida yoritib berishga harkat qilamiz.

Kalit so'zlar: kreditor, qarzdor, shartnomasiz majburiyatlar, bosh delikt tamoyili, majburiyat asoslari, majburiyat shartlari, majburiyatni qoplash usullari, ma'naviy zarar.

Kirish : Delikt majburiyatlar haqida so'z borar ekan avvalo majburiyat nima ekanligini bilib olishimiz kerak bo'ladi. Majburiyat deb shunday fuqarolik huquqiy munosabatga aytiladiki, unga asosan bir shaxs - qarzdor boshqa shaxs - kreditor foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, aniqrog'i: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatisli, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa — qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Majburiyat huquqi esa - mol-mulkni topshirish, ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatish yoki pul to'lash yoki muayyan harakatdan o'zini tiyib turish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan fuqarolik-huquqiy normalar yig'indisidir. Majburiyatlar kelib chiqishiga ko'ra 2 turga ya'ni Shartnomali majburiyatlarga va Shartnomasiz majburiyatlarga bo'linishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Delikt majburiyatlar esa o'z navbatida yuqorida ko'rsatib o'tkanimizdek shartnomasiz majburiyatlarga kiradi. Chunki zarar yetkazish orqali vujudga keladigan bu majburiyatda bir tomon ikkinchi tomon bilan shartnomaning har qanday shaklini tuzmaydi. Zarar etkazishdan kelib chiqadigan majburiyat tushunchasiga fuqarolik qonunchiligida ta'rif berilmagan. Biroq, mazkur tushuncha bevosita, g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga etkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga etkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni etkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozimligi tarzda Fuqarolik kodeksining ning 985-moddasida o'z ifodasini topgan. Mazkur normadan zarar etkazgan shaxsning etkazilgan zararni to'liq qoplash majburiyati, hamda jabrlanuvchining etkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqi mavjudligini anglash mumkin. Bu esa o'z navbatida majburiyatning an'anaviy tuzilishi – kreditor va qarzdor munosabatlari mavjudligini bildiradi. Mazkur holatda zarar etkazuvchi - qarzdor hisoblansa, jabrlanuvchi ya'ni mulkiga, hayoti yoki sog'lig'iga zarar etgan shaxs – kreditor hisoblanadi. Shu bilan birga zarar etkazilganda jabrlanuvchining talab qilishi huquqi zarar etkazuvchi uchun majburiyat sifatida namoyon bo'ladi. Zarar etkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga muvofiq, shaxs jismoniy yoki yuridik shaxs ning hayoti va sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar etkazgan shaxs etkazilgan zarar to'liq qoplash majburiyatini oladi, jabrlanuvchi esa o'ziga etkazilgan zarar qoplashni talab qilishi huquqiga ega bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, kishilarning bir-biri bilan doimiy ravishda o'zaro munosabatlarida ba'zan ularning moddiy yoki nomoddiy manfaatlariga zarar etish oqibatlari kelib chiqadi. Bu zararlar turli tasodiflar, ehtiyotsizlik, qasd orqali, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladi. Shunday holatda etkazilgan zarar kim tomonidan to'lanishi aniqrog' qilib aytganda zarar etkazilgan shaxs yoki jabrlangan shaxs yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'lanishi masalasi yuzaga keladi. Mazkur munosabatlarni tartibga solishda zarar etkazishdan kelib chiqadigan majburiyat instituti asosiy o'ringa ega bo'ladi. Yetkazilgan zarar uchun huquqbuzar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda yetkazilgan zarar

qoplash shaklidagi fuqaroviy javobgarlikka tortiladi. Fuqarolik huquqiy javobgarlik deganda, mulkiy tusdagi sankstiyalarni huquqbuzarga nisbatan tatbiq etish tushuniladi. Fuqarolik huquqining umumiy asoslariga muvofiq, fuqarolik-huquqiy javobgarlik mulkiy tusga ega bo'lib, shartnomali majburiyatlarga ham, shartnomadan tashqari vujudga keladigan majburiyatlarga ham tatbiq etiladi. Biroq, shartnomali majburiyatlarda javobgarlik ikkilamchi tusga ega bo'ladi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik shartnomali majburiyatlarni «kuzatib boradi» va majburiyat buzilgandagina qo'llaniladi. Agar majburiyat lozim darajada bajarilsa, javobgarlik masalasi vujudga kelmaydi. Zarar etkazishdan vujudga keladigan majburiyatlarda esa, javobgarlik huquqbuzarlik fakti asosida vujudga keladi. Ya'ni, zarar etkazishdan vujudga keladigan majburiyat vujudga kelishi bilan u o'z mazmunida javobgarlikni, huquqbuzarga sankstiya qo'llash imkoniyatini mavjudligini ifodalaydi. Albatta bu vaziyatda javobgarlik boshqa bir majburiyatni to'ldirmaydi, «kuzatmaydi», u zarar etkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlardagi huquqbuzar majburiyatining mazmunini tashkil etadi. Zarar etkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning quyidagi o'ziga xos belgilari mavjud: a) bu majburiyatlarning ta'sir doirasi zararni qoplash moddiy xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni qamrab oladi; b) ular mutlaq xarakterga ega bo'lgan mulkiy huquqlar ya'ni mulk huquqi, umrbod egalik qilish huquqi, yuritish huquqi, operativ boshqarish huquqiva boshqalar yoki shaxsiy nomulkiy manfaatlarining buzilishi natijasida kelib chiqadi; v) garchi huquq jabrlanuvchi bilan shartnomaviy munosabatlarida bo'lgan shaxs tomonidan buzilgan bo'lsa-da, majburiyatlar mutlaq huquqlar buzilganligi tufayli shartnomasiz xarakterga ega bo'ladi; g) bu majburiyatlar zarar kim tomonidan kimga etkazilgani, zarar qay ko'rinishda etkazilgani va zararni qoplash usullaridan qat'i nazar, to'liq qoplanishini nazarda tutadi; d) qonunda nazarda tutilgan hollarda zararni to'lash majburiyati boshqa shaxslarga ham yuklatilishi mumkin. Delikt majburiyatlar haqida asosiy tushunchalarga ega bo'lgan bo'lsak endi uning vujudga kelish asoslariga alohida to'xtalib o'tishimiz kerak bo'ladi.

Asosiy qism: Delikt majburiyatlarining vujudga kelish asoslari.

Zarar etkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar fuqarolik-huquqiy majburiyatlarning boshqa turlari kabi muayyachn yuridik faktlar asosida vujudga keladi. Ma'lumki Yuridik faktlar faqatgina majburiyatlarining emas balki barcha huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va o'z navbatida bekor qiluvchi holatlar hisoblanadi. Mazkur majburiyat vujudga kelishi uchun asos bo'ladigan qonun hujjatlaridan ko'zda tutilgan yuridik faktlar – zarar etkazish fakti, delikt hisoblanar ekan. Ammo, zarar etkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar o'z mazmunida etkazilgan zarar uchun javobgarlikni ham nazarda tutadi. Shuning uchun ham qonun delikt majburiyatlarini vujudga kelish asoslari va shartlari bilan birga zarar uchun javobgarlik asoslari va shartlari masalasini ham hal qiladi. Boshqacha aytganda, delikt majburiyatlarining vujudga kelish shartlari va etkazilgan zarar uchun javobgarlik shartlari bir-biriga mos keladi. Etkazilgan zarar uchun javobgarlik choralarini belgilashda qonun umumiy tamoyillarga tayanadi. Huquqiy adabiyotlarda bu tamoyil «bosh delikt tamoyili» - deb yuritiladi. Mazkur tamoyilga binoan, bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga etkazilgan zararining mavjudligi, etkazilgan zararni qoplash majburiyatini vujudga keltiradi. Bunda jabrlanuvchi zarar etkazuvchi harakatning g'ayriqonuniy ekanligini, uning aybdor ekanligini isbotlashi talab etilmaydi. Zarar etkazuvchining harakati huquqqa xilof va u aybdor – deb «hisoblanadi». Shu munosabat bilan zarar etkazuvchi javobgarlikdan faqatgina o'z harakatlari huquqqa xilof emasligini va aybdor emasligini isbotlagandagina ozod etiladi. FKning 985-moddasida fuqarolik huquqi sub'ektiga etkazilgan zarar zarar etkazuvchi tomonidan to'liq hajmda qoplanishi nazarda tutilgan. Fuqarolik qonunchiligida etkazilgan zarar uchun javobgarlikning umumiy shartlarini belgilovchi bosh delikt bilan birga bir qator vaziyatlarni nazarda tutiladiki, ularning har birida maxsus qoidalar qo'llaniladi va alohida deliktlar deb yuritiladi. Masalan, Fuqarolik kodeksining 999-moddasida oshiqcha xavf manbai tomonidan etkazilgan zarar uchun javobgarlik ko'rsatib o'tilgan, 993-moddasida esa- voyaga etmagan shaxslar tomonidan etkazilgan zarar uchun javobgarlik va boshqa holatlar alohida delikt hisoblanib ularni bosh delikt tamoyiliga asosan emas balki o'zining yuzaga kelish asoslari va subyektlari hisobiga alohida deb bejizga emas.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan javobgarlik asosi va shartlari.

Zarar yetkazish orqali vujudga keladigan majburiyatlarda bilib olishimiz kerak bo'ladigan qismi – uning asosi sifatida ko'riladi. Zarar (zararning mavjudligi) delikt javobgarlikning bevosita zaruriy asosi hisoblanadi. Zarar mavjud bo'lmaganda delikt javobgarlik haqida so'z bo'lishi ham mumkin emas. Delikt javobgarligining asosi sifatida zarar deganda fuqarolik huquqi sub'ektiga tegishli mol-mulk shikastlanishi yoki nobud bo'lishi natijasida, shuningdek fuqaroning sog'lig'iga shikast etishi va vafoti natijasida vujudga keladigan salbiy mulkiy va nomulkiy oqibatlar tushuniladi. Fuqarolik kodeksining 985-moddasiga muvofiq, zarar «shaxsga» yoki «mol-mulkka» etkaziladi. Mol-mulkka etkazilgan zarar deganda, odatda shaxsning mol-mulki kamayishi yoki ularning qiymati pasayishi tushuniladi. Shaxsga zarar etkazishda huquqbuzarlik ob'ekti bo'lib, nomoddiy ne'mat hisoblangan – fuqaroning hayoti va sog'lig'i tushuniladi. Biroq, mazkur zarar bo'yicha majburiyat vujudga kelishida asosiy e'tibor mulkiy holatga qaratiladi, ya'ni mulkiy zarar qoplanadi. Qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollardagina ma'naviy zarar undiriladi. Zarar yetkazish orqali vujudga keladigan majburiyatlarda asoslarni bilsakda unga yon-mayon uning shartlarini ham bilib olishimiz kerakligi talab etiladi. Xo'sh asosning o'zi yetmaydimi axir asos bo'lsa hammasi bir tekis javobgarlikka olib keladi-ku deyishingiz mumkin ammo uning shartlari bo'lmas ekan javobgarlik hattoki yuzaga kelmasligi mumkin.

Delikt majburiyatlar va ulardan kelib chiqadigan delikt javobgarlik quyidagi shartlar asosida vujudga keladi:

- zarar etkazgan shaxs xatti-harakati huquqqa xilofligi;
- zarar etkazuvchining huquqqa xilof hatti-harakati va etkazilgan zarar o'rtasidagi sababiy bog'lanish;
- zarar etkazgan shaxsning aybi.

Shuningdek Fuqarolik kodeksining 987-Zaruriy mudofaa holatida zarar yetkazganlik va 988- Oxirgi zarurat holatida zarar yetkazganlik kabi moddalari delikt majburiyatlardan yuzaga keladigan zararlarni to'lashni istisno etuvchi holatlar sifatida ko'riladi. Shuningdek fuqarolik kodeksining 989-moddasidan 1002-moddasigacha deliktning majburiyatlarining vujudga kelishining boshqa holatlarini ham tartibga solib, ushbu holatlarda ham majburiyatning kimga yuklanishi keltirib o'tilgan.

Zararning o'rnini qoplash usullari

Delikt majburiyatlari uchun umuman fuqarolikhuquqiy javobgarlik uchun etkazilgan zararni qoplash usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda etkazilgan zararni qoplash usullarining xilma xilligi jabrlanuvchi uchun qaysidir ma'noda «yupanch» vazifasini bajaradi. Chunki, aynan zararni qoplash usullarini tanlash orqali jabrlanuvchi o'zi uchun adolat qaror topishiga, o'zi tanlagan asoslarda zarar qoplanishiga umid uyg'otadi. 1003-moddasiga muvofiq, sud zararni qoplash to'g'risidagi talabni qanoatlantirar ekan, ish holatlariga muvofiq ravishda, etkazilgan zarar uchun javobgar shaxsga zararni aslicha qoplash aniqrog'i -o'shanday turdagi va sifatidagi ashyoni taqdim etish, shikastlangan ashyoni tuzatish yoki etkazilgan zararni to'lash majburiyatini yuklaydi. Yetkazilgan zararni qoplash usullari Fuqarolik Kodeksining 1003-moddasida ikkiga bo'linadi: 1-zararni aslicha qoplash; 2-yetkazilgan zararni to'lash. Ish holatlariga ko'ra huquqbuzarning huquqqa xilof harakati natijasida jabrlanuvchiga tegishli mol-mulk shikastlangan bo'lsa yoki uning mol-mulki nobud bo'lgan bo'lsa, jabrlanuvchi shikastlangan mol-mulk huquqbuzar hisobidan tuzatilishini yoki nobud bo'lgan mol-mulk o'rniga aynan shunday ashyoni taqdim etishni talab etishga haqli bo'ladi. Yetkazilgan zararni to'lashda esa, huquqbuzar Fuqarolik kodeksining 14-moddasiga muvofiq, haqiqiy zarar, boy berilgan foyda va ma'naviy zararni to'lashi lozim bo'ladi. Lekin ayrim hollarda ayblanuvchi ushbu delikt majburiyatlarning shartlarini jabrlanuvchining qilgan hatti-harakatlari yuzasidan ham qilishi mumkin. Bunday holatda Fuqarolik kodeksining 1004-moddasida keltirib o'tilganidek : “Jabrlanuvchining qasddan ish ko'rish natijasida yuzaga kelgan zarar to'lanmaydi” deyiladi ushbu modda 1-qismida. Bu holatda qasddan

deyilyapti. Ammo aybning yana bir shakli hisoblammish ehtiyotsizlik ko`rinishida sodir etilsachi degan savolga 1004-moddani 2- va 3- qismlarida: "Agar jabrlanuvchi o`zining qo`pol ehtiyotsizligi tufayli zararning yuzaga kelishiga yoki ortishiga ko`maklashgan bo`lsa, unda jabrlanuvchining va zarar yetkazuvchining aybi darajasiga qarab tovon miqdori kamaytirilishi lozim. Jabrlanuvchi qo`pol ehtiyotsizlik qilganda va zarar yetkazuvchining aybi bo`lmaganda, uning javobgarligi aybidan qat`i nazar, yuzaga kelgan hollarda, tovon miqdori kamaytirilishi lozim yoki, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo`lsa, zararni to`lash rad etilishi mumkin. Fuqaroning hayoti yoki sog`lig`iga zarar yetkazilganda tovon to`lashni rad etishga yo`l qo`yilmaydi"-deya qonunchilik qarzdorni majburiyatni bajarishdan istisno etadigan holatlarni ham ko`rsatib o`tayapti. Shuningdek Fuqarolik qonunchiligi Fuqarolarning hayoti va sog`lig`iga yetkazilgan zararning o`rnini qoplashni ham tartibga solgan bo`lib bunda ushbu kodeksning 57-bobi 2-paragrifi qoidalarini, Tovarlar, ishlar, xizmatlardagi nuqsonlar oqibatida yetkazilgan zararning o`rnini qoplashni ushbu bobning 3-paragrifida tegishli yetkazilgan zararlarni qoplash bo`yicha tartibga solingan.

Ma`naviy zarar va manaviy zararni qoplash

Manaviy zarar haqida so`z borar ekan bu borada O`zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi "Manaviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo`llashning ayrim masalalari to`g`risidagi" 7-sonli Qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Uning 2-bandida Ma`naviy zararga ta`rif berilar ekan shunday deyiladi "Ma`naviy zarar deganda jabrlanuvchiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarlik xarakati yoki xarakatsizligi oqibatida u boshidan kechirgan va o`tkazgan ma`naviy va jismoniy azoblar- kamsitilishi, jismoniy og`riq, xo`rlanish, noqulaylik kabilar tushuniladi G`ayriqonuniy harakatlar (harakatsizlik)ning obyektini bo`lib fuqaroga tug`ilgan vaqtidan buyon va qonunga muvofiq tegishli bo`lgan nomoddiy manfaatlari, (hayoti, sog`lig`i, shaxsning qadr-qimmati, ishchanlik obro`-e`tibori, shaxsiy hayotning daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy siri), shaxsiy nomulkiy huquqlari (o`z nomidan foydalanish huquqi, mualliflik huquqi va boshqa nomulkiy huquqlarning intellektual faoliyat natijalarini qonunlarga ko`ra huquqiy muhofaza qilish) va mulkiy huquqlari (uy-joy daxlsizligi, mulk huquqi va boshqalar)ni buzilishi bo`lishi mumkin."-deyiladi qarorda. Uning 6-bandida esa xodimning mehnat va (yoki) mashg`ulotlar sohasida kamsitishlar, ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etilishi, mehnat shartnomasini qonunga xilof ravishda o`zgartirishi, ishdan qonunga xilof ravishda chetlashtirishi, mehnat shartnomasi qonunga xilof ravishda bekor qilinishi yoki mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarining ta`rifini qonunga xilof ravishda o`zgartirish oqibatida xodimga yetkazilgan ma`naviy azoblarni kompensatsiya qilish majburiyatini ish beruvchiga yuklanishi hollarini ham ko`rsatib o`tadi. 10-bandida esa shaxsni mansabdor shaxslar tomonidan qonunga xilof ravishda javobgarlikka tortilish hollariga ham ta`xtalib o`tib qarorda "Sudlarga tushuntirilsinki, shaxsni g`ayriqonuniy tarzda ma`muriy javobgarlikka tortilish hollarida ham ma`naviy ziyonni undirish huquqi vujudga keladi (MJtKning [271-moddasi](#))"-deya belgilab ham qo`yadi. Ya`ni fuqaroga yetkaziladigan ma`naviy zarar faqatgina jismoniy shaxslar tomonidan emas balki mansabdor shaxslar tomonidan ham ushbu zarar kelib chiqishi mumkinligini va javobgarlikka tortilishini belgilab qo`yayapti. Ma`naviy zarar miqdori quyidagi mezonlar asosida belgilanadi: a) jabrlanuvchiga etkazilgan ma`naviy va jismoniy azoblarning xususiyati va xarakteriga qarab b) ayb tovon to`lashga asos bo`lgan xollarda zarar etkazuvchining aybi -surbetlik bilan, bexayolik bilan, puxta o`ylab huquqbuzarlik sodir etgani yoki engiltaklik bilan o`ylamasdan sodir etgani va shu kabilar asosida. Odatda ma`naviy zarar Fuqarolik kodeksining 1022-moddasi 1-qismiga ko`ra pul shaklida va ko`pincha so`mda qoplanadi.

Xulosa: Ushbu Delikt majburiyatlar-zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga bag`ishlangan maqolada ushbu majburiyatlarning o`zi nima ekanligini, qachon vujudga kelishini, asoslarini va shartlarini, bosh delikt tamoyiliga kirmaydigan alohida xollarini, Fuqaroning hayoti va sog`lig`iga yetkazilgan zararlarni, Tovarlar, ishlar, xizmatlardagi nuqsonlar oqibatida yetkazilgan zararlarni va ularning qoplanishini shuningdek hayotimizda ko`p uchradigan ma`naviy zarar bilan bog`liq holatlarni tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va foydalanilgan manbalar asosida ma`lumot berishga harakat



qildik. Agarda ushbu maqola orqali sizga zarar yetkazilganda nima qila olishingiz kerakligini tushungan bo'lsangiz bundan minnatdormiz.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQAROLIK KODEKSI IKKINCHI QISM 01.03.1997
2. Fuqarolik huquqi: Darslik. 2-qism Mualliflar jamoasi. - Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019. 684 bet
3. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. Mualliflar jamoasi. - T.: TDYU nashriyoti. 2017. — 311 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi "Manaviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risidagi" 7-sonli Qarori.
5. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan (delikt) majburiyatlar, O' quv qo'llanma, - Toshkent: TDYU nashriyoti, 2013. - 225 bet.
6. <https://uz.wikipedia.org>.